



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 26 - aprel

VI-61-87-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Jinoyat ishlari bo'yicha Bulung'ur tumani sudi raisi G'.Negmatovning 2022- yil I chorak davomida odil sudlovni amalga oshirish borasida bajarilgan ishlari to'g'risida

Jinoyat ishlari bo'yicha Bulung'ur tumani sudi raisi G'.Negmatovning 2022-
yil

I chorak davomida odil sudlovni amalga oshirish borasida bajarilgan ishlar
to'g'risidagi axborotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi
O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari
tuman Kengashining oltmish birinchi sessiyasi

QARORQILADI:

1. Jinoyat ishlari bo'yicha Bulung'ur tumani sudi raisi G'.Negmatovning
2022-yil I chorak davomida odil sudlovni amalga oshirish borasida bajarilgan
ishlar to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jinoyat ishlari bo'yicha Bulung'ur tumani sudi raisi G'.Negmatovga sud
organlari tizimida odil sudlovni ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish:

sudlarning faoliyatini erkinlashtirish, ularning mustaqilligini amalda
ta'minlash;

sud jarayonida ochiqlik, oshkoralik va adolat tamoyillariga qat'iy amal
qilinishini nazorat qilish;

inson huquqlarining buzilishiga, ularning qonuniy manfaat va erkinliklarini
himoya qilishga nisbatan qat'iy javobgarlikni talab qilish, buzilgan huquqlarni

tiklash bo'yicha barcha zaruriy choralarini ko'rish;

sudlar faoliyatida qonunchilik me'yorlarining buzilishiga, ularning noto'g'ri talqin etilishiga, shuningdek, to'rachilik, rasmiyatchilik va korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borish;

sud qarorlarining sifatini yaxshilash, har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilinishiga erishish maqsadida yuqori instansiya sudlari tomonidan sud qarorlarining o'zgartirilishi va bekor qilinishi sabablarini tahlil qilib, sud qarorlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab, Xalq deputatlari tuman Kengashiga ma'lumot taqdim qilish;

sud-huquq masalalari bo'yicha, korrupsiya holatlari va unga qarshi kurashish to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan hujjatlar va boshqa materiallarni o'rganish natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish, mazkur ishlarning natijalari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilib borish;

tuman sudlarida ko'rilgan ishlar bo'yicha qabul qilinadigan sud qarorlarini sud majlisi ishtirokchilariga batafsil tushuntirib berish;

tuman hokimligi, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari bilan hamkorlikda joylarga chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyoti bo'yicha fuqarolar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazish, huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlarini doimiy olib borilishi;

tuman hokimining o'rinbosarlari, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa aloqador tashkilotlar bilan birgalikda yoshlar bilan doimiy ravishda jinoyatchilikni oldini olish, profilaktika ishlarini tizimli tashkil etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish, hududlarda nizoli oilalarni aniqlash, ajrimlarni oldini olishga hamda voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jonlantirish;

jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik nazorati ijobiy natija berishini e'tiborga olgan holda aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish sohasida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), "Bulung'ur hayoti" gazetasi (G'.O'rolov)larga sud organlari tomonidan odil sudlovni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Rajabov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov